

**YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON QADRI ENG OLIY VAZIFA
EKANLIGINI TASDIQLOVCHI OLIY YURIDIK HUJJAT.**

Saypiyev Xusniddin Kamoliddinovich

Chirchiq shahar adliya bo‘limi boshlig‘i,

3-darajali adliya maslahatchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririni, uning inson qadri va huquqlarini himoya qilishdagi huquqiy mexanizmlari, ekologik majburiyatlari va demokratik davlat prinsiplari bilan uyg‘unligini tahlil qiladi. Maqolada yangi Konstitutsiyada shaxs erkinligini kafolatlovchi “habeas corpus” instituti, fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatlari, shuningdek, davlatning ekologik va ijtimoiy majburiyatlari, xalqaro aloqalarda demokratik siyosatning ta’minlanishi kabi masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada Konstitutsiyaning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini inson qadri tamoyillari asosida tashkil etishda strategik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: habeas corpus, miranda qoidalari, demokratiya, ijtimoiy adolat va konstitutsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется новая редакция Конституции Республики Узбекистан, принятой в новой редакции, ее соответствие правовым механизмам защиты человеческого достоинства и прав, экологическим обязательствам и принципам демократического государства. В статье обсуждаются такие вопросы, как институт "habeas corpus," гарантирующий свободу личности в новой Конституции, возможности защиты прав и свобод граждан, а также экологические и социальные обязательства государства, обеспечение демократической политики в международных отношениях. Также в статье освещается стратегическое значение Конституции в организации общественно-политической жизни общества на основе принципов человеческого достоинства.

Ключевые слова: habeas corpus, правила миранда, демократия, социальная справедливость и конституция.

Abstract: In this article, he analyzes the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in the new edition, its legal mechanisms for protecting human dignity and rights, environmental obligations, and harmony with the principles of a democratic state. The article discusses such issues as the institution of "habeas corpus," guaranteeing individual freedom in the new Constitution, the possibilities of protecting the rights and freedoms of citizens, as well as the environmental and social obligations of the state, ensuring democratic policy in international relations. The

article also highlights the strategic importance of the Constitution in organizing the socio-political life of society based on the principles of human dignity.

Key words: habeas corpus, mirand rule, democracy, social justice, and constitution.

Kirish. Ma'lumki, har bir davlatning asosiy maqsad va vazifalarini, faoliyatini qonuniy jihatdan belgilab beruvchi, qolaversa, aholini har tomonlama himoya qilishda, ularning huquq va erkinliklarini mustahkamlovchi oliy yuridik hujjat konstitutsiya hisoblanadi. Konstitutsiya dastlab, endigina mustaqillikka erishgan, hozirgi kunda dunyoda hayotning har bir sohasida global yetakchilikni ushlab kelayotgan davlatda, ya'ni barchaga ma'lum bo'lgan AQSHda 1787-yilda vujudga kelgan. Shuningdek, tarixda imperialistik jamiyatdan respublika boshqaruv shakliga endi qadam qo'yayotgan davlatlar, kelajakdagi xatti-harakatini ifoda etuvchi hujjatni tasdiqlashda ehtiyoj seza boshlaganlarini tushungan holda konstitutsiya qabul qilishni lozim topganlar. Xususan, 1789-yilda Fransiya konstitutsiyasi qabul qilingan.

XXI asrda demokratik huquqiy davlatlar rivojining bosh mezonini sifatida inson manfaatlarini, huquq va erkinliklarining ustuvorligi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tamoyilning davlat boshqaruvi va huquq tizimida to'liq aks etishi mamlakatning siyosiy barqarorligi, ijtimoiy adolati va fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi¹. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyatida aynan inson qadri ulug'lash, uning huquqiy maqomini kuchaytirish, sha'ni va qadr-qimmatini oliy ne'mat sifatida e'tirof etish konsepsiyasi markaziy o'rinni egallaydi².

2023-yilda umumxalq referendumida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri ushbu g'oyani huquqiy jihatdan mustahkamlaydigan eng oliy yuridik asos sifatida namoyon bo'ldi. Konstitutsiyada “inson – jamiyat – davlat” tamoyilining ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish davlatning eng oliy vazifasi ekani qat'iy belgilab qo'yildi³.

Bunday yondashuv mamlakat tarixida ilk bor inson qadri va manfaatlarini davlat siyosatining markaziga qo'ygan fundamental konstitutsiyaviy yuksalish sifatida baholanadi⁴. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya oddiy normativ hujjat bo'libgina qolmay, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini inson qadri ulug'lanadigan tamoyillar asosida qayta tashkil etishga xizmat qiluvchi strategik huquqiy dastur sifatida

¹ Uzbekistan: New Constitution Takes Effect <https://www.loc.gov/>

² Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha'ni, qadr-qimmatini va huquqlarining mustahkam kafolati <https://constitution.uz/oz>

³ YANGI KONSTITUTSIYA INSON QADRI VA HUQUQLARINING KAFOLATIDIR Sh.X.Mamataliyeva, Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent

⁴ 10 main changes in Uzbekistan's new constitution <https://kun.uz/en>

qaralmoqda. Unda demokratik institutlarni mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, huquqlarni kafolatlaydigan mexanizmlarni samarali foydalanish kabi masalalarga alohida urg‘u berilganligi namoyon bo‘lmoqda⁵.

Inson qadri tushunchasi zamonaviy huquqiy davlatlar rivojlanishida markaziy o‘rin egallagan konseptual qoidalaridan biri bo‘lib, ushbu tushuncha shaxsning huquqiy maqomi, shaxsiy erkinliklari, ijtimoiy tengligi va davlat tomonidan kafolatlangan huquqlari majmuasini o‘z ichiga olishini nazarda tutadi. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida ushbu g‘oya bevosita konstitutsiyaviy tamoyil sifatida mustahkamlanib, davlatning asosiy maqsad va vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Yangi Konstitutsiyada shaxs erkinligini himoya qiluvchi “habeas corpus” instituti yanada rivojlantirildi. Endilikda fuqaro sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddatga ushlab turilishi qat’iy taqiqlanadi. Ya’ni, insonning erkinligini cheklovchi har qanday chorani qo‘llash faqat sud tomonidan rasmiylashtirilgan hujjat asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu norma tergov jarayonida noqonuniy hibsga olish, odamni asossiz ravishda qamoqda ushlab turish kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi⁶.

Shuningdek, birinchi bor ushlab vaqtida shaxsga uning qanday asosda ushlab turilgani va qaysi huquqlarga ega ekani tushunarli shaklda yetkazilishi majburiy tartibga kiritildi. Ayblanayotgan yoki sudlanayotgan shaxsga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik, ya’ni “sukut saqlash” huquqi kafolatlandi⁷. Boshqacha aytganda, xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan “Miranda qoidalar” mamlakatimiz Asosiy qonuniga moslashtirildi. Yangi Konstitutsiyada har bir fuqaro o‘z huquq va erkinliklarini qonun tomonidan taqiqlanmagan har qanday vosita bilan himoya qilish huquqiga ega ekani alohida belgilandi⁸. Ushbu norma shuni anglatadiki, shaxslar o‘z buzilgan huquqlarini yoki boshqa shaxslar huquqlarini kamsitmagan holda mustaqil tarzda tiklash imkoniyatiga ega. Asosiy shart shundaki, fuqaro o‘zini himoya qilishda qo‘llaydigan har qanday choralar yoki usullar amaldagi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan bo‘lishi zarur⁹.

Bundan tashqari, ushbu yangi normalar inson huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda ilgari surilgan shaxs sha’ni va qadrini e‘zozlash tamoyillariga to‘liq mos keladi. Xususan, fuqarolarning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, shuningdek, qonunchilikda aniq tartibga solinmagan masalalarda fuqaro foydasiga qaror qabul qilinishi kabi qoidalar, Konstitutsiyada muhim konseptual yangiliklar sifatida ko‘rsatilmoqda. Natijada, ushbu norma

⁵ A constitution for “the New Uzbekistan” <https://www.osw.waw.pl/en>

⁶ Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha’ni, qadr-qimmatini va huquqlarining mustahkam kafolati <https://constitution.uz/uz>

⁷ YANGI KONSTITUTSIYA INSON QADRI VA HUQUQLARINING KAFOLATIDIR Sh.X.Mamataliyeva, Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasining o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent

⁸ Uzbekistan: New Constitution Takes Effect <https://www.loc.gov/>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. — Toshkent: 2023. (2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida asosida qabul qilingan). <http://lex.uz/docs/-6445145>

fuqarolarga o‘z huquqlarini himoya qilishda yanada keng imkoniyat yaratib, davlatning inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida tan olishini mustahkamlaydi. Shuningdek, davlatimiz rahbari ta’kidlashicha¹⁰, inson qadri deganda har bir fuqaro uchun tinch va xavfsiz hayot kafolati, fundamental huquq va erkinliklarning himoyasi, malakali tibbiy xizmatga kirish imkoniyati, sifatli ta’lim olish, shuningdek, mukammal ijtimoiy himoya tizimi va sog‘lom ekologik muhit ta’minlanishini tushunish kerak. Bundan tashqari, inson qadri doirasida munosib turmush sharoiti yaratish va zamonaviy infratuzilmani bosqichma-bosqich rivojlantirish ham muhim omil sifatida ko‘riladi.

Bugungi kunda inson qadri va uning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish g‘oyasi davlatimiz ichki va tashqi siyosatining asosiy tamal toshiga aylangan. Mazkur tamoyil, yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilmoqda va ushbu ezgu sa’y-harakatlarni bir-biri bilan uyg‘unlashtiruvchi muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, agar dunyo mamlakatlarining Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shulardan taxminan 90 tasi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan¹¹. Bu esa mamlakatimizning inson huquqlarini himoya qilish sohasida jahon standartlariga mos kelayotganini ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda ko‘plab rivojlangan davlatlar global iqlim o‘zgarishlarini hisobga olgan holda Konstitutsiyalariga maxsus ekologik bo‘limlar kiritmoqda¹². Xususan, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, ekologik huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari mustahkamlangan¹³.

Qolaversa, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi ham ekologik masalalarga alohida e’tibor qaratgan¹⁴. Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaning 115-moddasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklar va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalar va pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha yagona davlat siyosati amalga oshirilishi belgilangan. 49-moddada esa har bir fuqaroning qulay atrof-muhitdan foydalanish va uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborot olish huquqlari kafolatlangan¹⁵. Ta’kidlash joizki, davlatning barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash,

¹⁰ Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati <https://constitution.uz/oz>

¹¹ Akmal SAIDOV, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati” <https://constitution.uz/oz>

¹² 10 main changes in Uzbekistan’s new constitution <https://kun.uz/en>

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. — Toshkent: 2023. (2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida asosida qabul qilingan). <http://lex.uz/docs/-6445145>

¹⁴ Uzbekistan: New Constitution Takes Effect <https://www.loc.gov/>

¹⁵ A constitution for “the New Uzbekistan” <https://www.osw.waw.pl/en>

Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini tiklash va uni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ham Konstitutsiyada ko‘zda tutilgan majburiyatlardandir. Bugungi kunda, O‘zbekiston 142 mamlakat bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatgan va 100 dan ortiq xalqaro tashkilot hamda tuzilmalarga a‘zo sifatida faol ishtirok etmoqda.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ochiq, tinch, pragmatik va faol tashqi siyosatning yangi modeli muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, bu esa O‘zbekistonning xalqaro maydondagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi dunyoviy davlat qurish, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish hamda unda tenglik va teng huquqlilik prinsiplarini amaliyotga tatbiq etishga asoslangan. Ushbu asoslar, ayniqsa, fuqarolar, xususan, ayollar va bolalarning huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi¹⁶. Shu bilan birga, yurtimizda inson huquqlari madaniyati tobora yuksalayotgani, har bir shaxsning hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga hurmat ruhining shakllanayotgani alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasining uchinchi bandida belgilanishicha, “Konstitutsiyada ko‘zda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvozanatli tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonun asosida javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi”. Ushbu norma Yangi O‘zbekistonning demokratik huquqiy davlat ekanligini tasdiqlaydi va mamlakatda hokimiyat almashuvi faqat Konstitutsiya va qonunlar doirasida amalga oshirilishini kafolatlaydi. Davlatning huquqiy siyosati esa insonparvarlik, demokratiya, ijtimoiy adolat va siyosiy xilma-xillik prinsiplar asosida shakllanganligini nazarda tutadi.

Xulosa. Yuqoridagi muhokamamiz asosida umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatni dunyoviy, demokratik va huquqiy davlat sifatida yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan oliy yuridik hujjat ekanligi isbotlandi. Ushbu Konstitutsiyada inson qadri, uning huquq va erkinliklari davlatning eng oliy vazifasi sifatida belgilandi, shaxs erkinligini himoya qilish, huquqlarni mustaqil tarzda tiklash va ekologik barqarorlikni ta‘minlash kabi mexanizmlar aniq tartibga solindi. Shuningdek, shaxs erkinligini kafolatlovchi “habeas corpus” instituti, fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatlari, shuningdek, davlatning ekologik va ijtimoiy majburiyatlari, xalqaro aloqalarda demokratik siyosatning ta‘minlanishi global ahamiyatga molik ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, konstitutsiya nafaqat normativ-huquqiy hujjat, balki mamlakatning demokratik taraqqiyoti, inson qadri ulug‘lanadigan jamiyat va barqaror

¹⁶ Akmal SAIDOV, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha‘ni, qadr-qimmat va huquqlarining mustahkam kafolati” <https://constitution.uz/oz>

davlat siyosatini shakllantiruvchi strategik huquqiy dastur sifatida o‘z ifodasini topganligini aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Normativ huquqiy-hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <http://lex.uz/docs/-6445145>

Ilmiy maqola va jurnallar

1. Akmal SAIDOV, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati” <https://constitution.uz/oz>

2. YANGI KONSTITUTSIYA INSON QADRI VA HUQUQLARINING KAFOLATIDIR Sh.X.Mamataliyeva, Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent.

3. 10 main changes in Uzbekistan’s new constitution <https://kun.uz/en>

4. A constitution for “the New Uzbekistan” <https://www.osw.waw.pl/en>

5. Uzbekistan: New Constitution Takes Effect <https://www.loc.gov/>